

XALQARO "IT" TA'LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNI O'RGATUVCHI SAYT YARATISH.

Davronov M.J., Xalilova S.R., Shodmonov D.A.

**TATU SF 3-bosqich talabasi*

***TATU SF 1-bosqich talabasi*

****TATU SF "Raqamli va ta'lim texnologiyalari"*

kafedrası katta o'qituvchisi

shodmonovd1985@gmail.com

Аннотация: Данный проект посвящён созданию образовательной платформы для подготовки к международным IT-сертификациям. В работе рассмотрены виды сертификатов, анализ популярных образовательных платформ, технические и функциональные требования, дизайнерские решения, структура сайта и удобство для пользователей. Разработана практическая электронная образовательная платформа.

Abstract: This project is dedicated to the development of an educational platform for preparing for international IT certifications. It analyzes types of certifications, educational platforms, technical and functional requirements, design solutions, website structure, and user convenience. A practical web-based educational platform has been developed and implemented as part of the project.

Kalit soʻzlar: IT sertifikatlar, ta'lim platformasi, veb dasturlash, onlayn ta'lim, foydalanuvchi interfeysi (UI), foydalanuvchi tajribasi (UX), raqamli ta'lim, elektron o'quv tizimi, funksional talablar, frontend va backend texnologiyalari.

Bugungi kunda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda, har bir mamlakat, xususan, O'zbekiston uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini egallagan, malakali IT mutaxassislarini yetishtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev Miromonovich** rahbarligida so'nggi yillarda qabul qilingan qator muhim hujjatlar mamlakatimizda IT sohasi taraqqiyoti uchun mustahkam huquqiy va tashkiliy asos yaratib berdi [1].

Jumladan, 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan PQ-408-sonli "Raqamli texnologiyalar sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, xalqaro IT sertifikatlash tizimini joriy etish va ushbu sohada iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi huquqiy asoslar va dolzarb ehtiyojlar asosida, xalqaro IT sertifikatlar haqida ma'lumot beruvchi, ularni olishga tayyorlovchi va platformalardan foydalanishni o'rgatuvchi zamonaviy o'quv sayt yaratish — nafaqat texnologik, balki

ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Bunday sayt yoshlar orasida ITga qiziqishni oshiradi, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu loyihamizning maqsadi — xalqaro IT sertifikat beruvchi ta'lim platformalaridan foydalanishni o'rgatish uchun interaktiv veb-sayt yaratish. Sayt foydalanuvchilarga mashhur xalqaro IT ta'lim platformalarida (masalan, Coursera, Udemy, LinkedIn Learning, edX) ta'lim olish, sertifikatlar olish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Amalga oshirish uchun bajariladigan vazifalari:

1. Xalqaro IT sertifikatlash tizimining mohiyati va ahamiyatini o'rganish, turli platformalar va sertifikatlar haqida ma'lumotlarni yig'ish.
2. Sayt foydalanuvchilari uchun platformalar va kurslar bo'yicha interaktiv ko'rsatmalar yaratish.
3. Saytning dizaynini ishlab chiqish, foydalanuvchi tajribasini (UX) va interfeysini (UI) optimallashtirish.
4. O'quvchilarga onlayn tarzda sertifikatlar olish uchun zarur bo'lgan bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqish.
5. Saytda foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish, kurslar tanlash, testlar va imtihonlar o'tkazish imkoniyatlarini yaratish.
6. Saytni yaratishda eng so'nggi web-texnologiyalarni (HTML, CSS, JavaScript, PHP, MySQL) qo'llash.
7. Saytning samaradorligini baholash va uni takomillashtirish uchun foydalanuvchi fikr-mulohazalarini yig'ish va tahlil qilish.

Loyihamizning amaliy ahamiyati, xalqaro IT sertifikatlash tizimi va ta'lim platformalaridan foydalanishni o'rgatishga yo'naltirilgan saytning yaratilishida yotadi. Ushbu sayt, o'zining foydalanuvchilarga qulay interfeysi va interaktiv materiallari bilan, ularni global IT ta'lim platformalariga yo'naltirib, malakali IT mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Amaliy ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin:


1. Yoshlarni IT sohasida kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazish: Sayt, talabalarga va yosh mutaxassislarga IT sertifikatlarini olish jarayonida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni taqdim etadi, bu esa ularga raqamli texnologiyalar sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini yaratadi.
2. Xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash: Sayt orqali foydalanuvchilar xalqaro IT sertifikatlari olish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning qobiliyatlari va malakalari global mehnat bozorida tan olinadi, bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotining raqamli rivojlanishiga hissa qo'shadi.
3. O'zbekistonning raqamli ta'lim sohasini rivojlantirish: Ushbu loyiha, O'zbekistonning raqamli ta'lim sohasini global miqyosda rivojlantirishga xizmat

qiladi. Talabalar va mutaxassislar uchun xalqaro ta'lim platformalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etish, ta'lim tizimining raqamli infrastrukturasini va sifatini yaxshilashga olib keladi.

4. Innovatsion ta'lim usullarini joriy etish: Sayt, an'anaviy ta'lim tizimidan tashqari, onlayn ta'limni kengaytirish, innovatsion o'quv metodlarini qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu, ta'limni yanada interaktiv va samarali qilishga xizmat qiladi.

5. Foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashish: Saytning foydalanuvchi tajribasiga (UX) va interfeysi (UI)ga alohida e'tibor berilishi, saytni barcha yoshdagi va turli darajadagi foydalanuvchilar uchun qulay va samarali qiladi. Bu esa, ta'limni keng ommaga taqdim etishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro "IT sertifikat" beruvchi ta'lim platforma asosiy sahifalaridan biri – bu foydalanuvchilarga taklif etilayotgan kurslar va ular joylashtirilgan platformalar haqida batafsil ma'lumot beruvchi bo'limlardir.



1-rasm. Xalqaro "IT sertifikat" beruvchi ta'lim platformalar.

Elektron ta'lim platforma o'zining tarkibi jihatidan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish, ta'lim jarayonining har bir bosqichida zarur materiallar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Nazariy materiallar (darslar):

Har bir mavzuga doir nazariy materiallar aniq, sodda va tushunarli tarzda bayon qilingan. Ular mavzu mohiyatini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Har bir dars

matni muayyan o'quv maqsadlariga asoslangan bo'lib, mavzular ketma-ketlikda va mantiqiy izchillikda berilgan.

2. Testlar va mustahkamlash mashqlari:

Mavzularni mustahkamlash va o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida turli formatdagi (yopiq, ochiq, moslashtirish, juftlik tanlash) test topshiriqlari ishlab chiqilgan. Ular foydalanuvchilarga o'z bilimlarini baholash va kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi.

3. Video materiallar:

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida turli mavzularga oid video darslar joylashtirilgan. Ushbu videolar orqali foydalanuvchilar vizual tarzda jarayonni kuzatib, tushunmagan jihatlarni qayta ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.

4. Metodik qo'llanmalar:

O'qituvchilar uchun maxsus tayyorlangan metodik tavsiyalar, dars rejasi namunasi, foydalanish usullari va interfaol metodlar bo'yicha qo'llanmalar mavjud. Bu resurslar darslarni samarali tashkil etishda katta yordam beradi.

5. Slaydlar va taqdimotlar:

Har bir mavzuga oid tayyor slaydlar majmuasi ham kiritilgan bo'lib, ular dars jarayonida vizual vosita sifatida foydalaniladi. Bu taqdimotlar mavzuni yoritishda o'quvchilar e'tiborini jalb qilishga xizmat qiladi.

Ushbu komponentlarning barchasi yagona majmua tarkibida tizimli tarzda taqdim etilishi, o'quv jarayonining interaktivligini, foydalanish qulayligini va natijaviyligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ish orqali zamonaviy IT bilimlarini targ'ib qilish, yoshlarni xalqaro darajadagi sertifikatlariga tayyorlash va onlayn ta'limga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiluvchi veb-platforma yaratishdir. Kelgusida bu tizimni yanada takomillashtirish, yangi kurslar qo'shish va foydalanuvchi tajribasini oshirish orqali kengroq auditoriyani qamrab olish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davronov M.J., Xalilova S.R., Turdibekova M.O., Shodmonov D.A. IT kompetensiyalarni shakllantirishda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari. "Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta'lim tatbiqu muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali. Samarqand shahri, 2025-yil 25-26 aprel.